

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

VOLUME I, ISSUE 12



JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**



IMFAKTOR

DECEMBER | 2023

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 12-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-12

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-12

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 12 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-12>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек Ғ.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергандовна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайбергандов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 2022 йил 22 декабрь кунини **№ 054834**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 8.2** “**импакт-фактор**” кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади**.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

AMIROV Javlonbek Olimjon o'g'li*Namangan davlat universiteti**tayanch doktoranti*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10279056>

YOSH FUTBOLCHILARNI TAYYORLASHDA KORDINATSION QOBILIYATLAR MUAMMOSINING O'RGANILGANLIGI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mamlakatimiz va chet el olimlari tomonidan olib borilgan yosh futbolchilarni tayyorlashda kordinatsion qobiliyatlar muammosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili bayon etilgan. Yosh futbolchilarni kordinatsion qobiliyatlaridagi turli muammolari adabiyotlarda o'rganildi tahlil qilindi. Umumiy va maxsus kordinatsion qobiliyatlarning rivojlantirilishidagi olimlarning fikrlaridagi kamchilik va yutuqlari o'rganildi. Kordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning metodologik asoslarini ishlab chiqish bilan bog'liq masalalarga yechim topildi. Sportchi yoshlar tayyorgarligining turli tomonlarini takomillashtirishga yordam beruvchi yangi ilmiy-pedagogik adabiyotlardan malumotlar olindi.

Kalit so'zlar: kordinatsion qobiliyat, maxsus koordinatsion qobiliyatlar, muvofiqlashtirish layoqatlari, jismoniy sifatlar, jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarli, jisoniy rivojlanish, pedagogik kuzatishlar, modellashtirish, umumlashtirish.

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ КОРДИНАЦИОННЫХ НАВЫКОВ В ПОДГОТОВКЕ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье описан анализ научно-исследовательских работ по проблеме координационных способностей в тренировке юных футболистов, проведенных нашими отечественными и зарубежными учеными. В литературе изучаются и анализируются различные проблемы координационных способностей юных футболистов. Изучены недостатки и достижения ученых в развитии общих и специальных координационных навыков. Было найдено решение вопросов, связанных с разработкой методических основ развития координационных навыков. Получена информация из новой научно-педагогической литературы, которая способствует совершенствованию различных аспектов подготовки юных спортсменов.

Ключевые слова: координационные способности, специальные координационные способности, координационные способности, физические качества, физическая подготовка, технико-тактическая подготовка, физическое развитие, педагогические наблюдения, моделирование, обобщение.

THE STUDY OF THE PROBLEM OF COORDINATION SKILLS IN THE TRAINING OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS

ANNOTATION

This article describes the analysis of scientific research works on the problem of coordination skills in the training of young football players carried out by our country and foreign scientists. Various problems of coordination abilities of young football players have been studied and analyzed in the literature. The shortcomings and achievements of scientists in the development of general and special coordination skills were studied. A solution was found to the issues related to the development of methodological bases for the development of coordination skills. Information was obtained from the new scientific and pedagogical literature, which helps to improve various aspects of training of young athletes.

Key words: coordination ability, special coordination abilities, coordination abilities, physical qualities, physical training, technical-tactical training, physical development, pedagogical observations, modeling, generalization.

Dunyoda bugungi kungacha futbolning ommaviyligi o'sib bormoqda, u boshqa sport turlari orasida o'zining munosib o'rnini egallab bo'ldi. Zamonaviy futbol yosh futbolchilarning tayyorgarligiga yuqori talablar qo'yadi, bu esa o'quv-mashg'ulot jarayonini tuzishga bo'lgan yangi, yanada mukammal uslubiy yondashuvlarni izlab topish hamda sportchi yoshlar tayyorgarligining turli tomonlarini takomillashtirishga yordam beruvchi yangi ilmiy-pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Zamonaviy futbolda muntazam o'zgarib turuvchi o'yin vaziyatlarida harakatlarini aniq muvofiqlash hamda qayta qurish ko'nikmasi, reaksiya tezligi, diqqatni jamlash va ko'chirish, o'yinni tez sur'atda olib borish ko'nikmasi kordinatsion qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Zero, ushbu qobiliyatni rivojlantirish futbol sport turida yuqori natijalarga erishish uchun asosiy omillardan hisoblanadi.

Hozirgi kunda turli yoshdagi futbolchi yoshlarning morfofunktsional ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda ularning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish, musobaqa faoliyati sharoitlarida texnik-taktik harakatlar samaradorligini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar olib borilmoqda. So'nggi yillarda har xil sport turlarida sportchilarning umumiy va maxsus kordinatsion qobiliyatlarini takomillashtirish masalalari yuzasidan katta nazariy va tajriba materiallari to'plangan. Biroq yosh futbolchilar, ayniqsa, 11-12 yoshli futbolchilarda kordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar sanoqlidir. 11-12 yoshli yoshli futbolchilarni kordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslarini ishlab chiqish bilan bog'liq masalalar yetarlicha o'rganilmagan.

Biz tomonimizdan o'rganilayotgan yosh futbolchilarni tayyorlash bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'pgina tadqiqotlar yosh futbolchilarning jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish va fiziologik ko'rsatkichlarini o'rganish masalalariga bag'ishlangan, biroq yosh futbolchilarning kordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish muammosi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Vatanimiz olimlaridan R.I.Nurimov, Sh.T. Iseev, O.A.Qurbonovlar yosh va yuqori malakali futbolchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini oshirish, kordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari yuzasidan keng qamrovli ma'lumotlarni umumlashtirgan holda taklif va tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Biroq 11-12 yoshli futbolchilar kontingentida futboldagi mavjud muammolar tadqiq qilinmagan.

Belgilangan vazifalarni hal qilish nazariy va empirik tadqiqot usullaridan foydalanish asosida amalga oshirildi: ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatishlar, modellashtirish, umumlashtirish, natijalarni qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

Uzoq yillar davomida ilmiy-usuliy adabiyotlarda «chaqqon» deganda nimani tushunish kerak, uni qanday belgilari mavjudligi, chaqqonlikning insondagi boshqa xususiyatlar bilan o‘zaro bog‘liqligi masalalari keng munozaraga sabab bo‘lib kelmoqda. Lekin hozirgi kungacha olimlar orasida chaqqonlikning aniq ta’rifi mavjud emas va turli va juda qarama – qarshi fikrlar mavjud. Ba’zi hollarda chaqqonlik muvofiqlanganlik, muvofiqlash layoqatlari bilan belgilansa, boshqa hollarda muvofiqlash layoqatlari ko‘rsatkichlarining hosilasi, uchinchi holda - muvofiqlash layoqatlarini (kordinatsion qobiliyatlar) namoyon bo‘lishini chegaralovchi, insonning psixomotor xususiyatlari bilan bog‘laydilar. Bunda, chaqqonlikning o‘lchovlari sifatida turli belgilar ishlatiladi [4].

“Muvofiqlashtirish layoqatlari” va “Kordinatsion qobiliyatlar” atamaları lug‘aviy jihatdan bir xil ma’noni anglatadi va adabiyotlarda turlicha qo‘llanilishi mumkin bo‘ladi [8].

“Kordinatsion qobiliyatlar” tushunchasi fanga keyingi 30-40 yillar davomida chaqqonlik harakatlanish sifati tasavvurlarni aniqlashtirish uchun kirib keldi. To shu kungacha maxsus adabiyotlarda chaqqonlik ikkita asosiy qobiliyatlardan: birinchidan, yangi harakatlanish amallarini tezkorlik bilan egallash qobiliyati (tez o‘rganish qobiliyati), ikkinchidan, vaziyat kutilmaganda o‘zgarib qolish sharoitlarida harakatlanish faoliyatini tezda kordinatsiyalangan holda qayta qurish qobiliyatidan iborat ekanligini o‘qish mumkin. Oxirgi aytilgan qobiliyatni ba’zida nisbatan standart va variativ (ehtimolli) va kutilmaganda, tez o‘zgaruvchi vaziyatlarda namoyon bo‘ladigan "harakat adaptatsiyasi" qobiliyati sifatida qaraydilar. Chaqqonlikning boshqa ta’riflari ham mavjudligini ta’kidlab o‘tamiz. Bu mavzuga oid tahlillarni bir qator ilmiy ishlardan o‘rganish mumkin [3, 4, 21].

Shu ma’noda maxsus kordinatsion qobiliyatlar deganda «inson o‘zining optimal boshqarilishga hamda kelib chiqishi va harakatlanish amallarining ma’nosi bo‘yicha shunga o‘xshash regulatsiyaga tayyorligi imkoniyatlarini aniqlaydigan holati» yoki o‘zgaruvchan sharoitda yuzaga keladigan qarshiliklarni to‘g‘ri, tez, oqilona hal etish tushuniladi [7].

Shunga ko‘ra nazariy va ilmiy tadqiqotlar quyidagi kordinatsion qobiliyatlar turlarini ajratishga imkon beradi: "Maxsus", "o‘ziga xos" va "umumiy" [12].

Sport sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar natijasi o‘laroq kordinatsion qobiliyatlar sport o‘yinlarida yosh sportchilarni tayyorlashda va ularning musobaqa faoliyatini samaradorligini oshirishda eng muhim omillardan biri ekanligi ta’kidlanmoqda [11].

Sportchilarning texnik tayyorgarligida kordinatsion qobiliyatlarni roli uzoq vaqtdan beri mutaxassislar tomonidan yetakchi sifatida tan olingan. Harakatlar kordinatsiyasi va fazoviy yo‘nalishini rivojlantirishga qaratilgan yosh va o‘rta yoshda kordinatsion qobiliyatlari va ularning nisbati aniq rivojlantirish kerakligi to‘g‘risida aniq ma’lumot topilmagan[14].

Mutaxassislar odamning yangi noodatiy sharoitlarda xatti-harakatlarni ikkinchi tomondan uning kordinatsion imkoniyatlarini zudlik bilan shakllantira oladigan ma’lum ijobiy qobiliyatlar deya fikr bildirishgan [1, 20].

Hozirgi vaqtda mutaxassislar sportchining kordinatsion qobiliyatlarni baholash va rivojlantirish uchun ularni toifalashtirishning ilmiy konsepsiyasiga tayanish kerakligini ta’kidlashmoqda. Ana shunday konsepsiyalardan birini V.I.Lyax taqdim etgan. Uning fikriga ko‘ra, qobiliyatlar ma’lumotlarining vertikal toifalanishi (klassifikatsiyasi) hisoblanadi [13].

N.G.Ozolin ta’kidlaganidek, sport mashg‘ulotlarining texnikasini uning atrof-muhit sharoitlarida aqliy va jismoniy faoliyatini muvofiqlashtirish sifatida ko‘rib chiqish kerak [17].

Shuningdek, mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalarining ko‘rsatishicha, bu yo‘nalishda ko‘p sondagi ishlar mavjud bo‘lib, ularda mualliflar tomonidan yosh sportchilarda kordinatsion qobiliyatlar irsiy omillar (genetik omil) bilan belgilanishi tan olinsada, biroq bu qobiliyatlar boshqa jismoniy sifatlar kabi rivojlanishga jalb qilinadi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan mualliflar tomonidan qayd qilinishicha, kordinatsion qobiliyatlar rivojlanish tezligi genetik omillar, anatomik- fiziologik boshlang‘ichlar, organizmning turli xil yosh davrlarida voyaga yetish xususiyatlari bilan bog‘liq hisoblanadi.

Umumiy va maxsus kordinatsion qobiliyatlarning rivojlantirilishi uchun mutaxassislar tomonidan quyidagi bir butun mashqlar tizimi keltirib o‘tiladi: siklik, asiklik, tahliliy, sintetik, doira ko‘rinishidagi mashg‘ulotlar variantlari, gimnastik mashqlar, akrobatika, sport o‘yinlari asosidagi mashqlar va boshqalar [2, 16].

Ko‘pgina olimlar [3, 6, 9, 11] maxsus koordinatsion qobiliyatlarning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatishgan:

- harakatlarning makon, vaqt va kuchga tegishli ko‘rsatkichlarini aniq ishlab chiqish va differensialash qobiliyati;

- makon bo‘ylab mo‘ljal olish qobiliyati;

- muvozanatni ta‘minlash qobiliyati;

- ritmga nisbatan qobiliyat;

- statokinetik barqarorlikga nisbatan qobiliyat;

- reaksiya ko‘rsatishga nisbatan qobiliyat;

- harakatlarni qayta tuzib chiqish qobiliyati (o‘zaro)

-harakatlar va zo‘r berishlarning aniq differensiallanishi qobiliyati.

V.I. Platonov tomonidan qayd qilinishicha, maxsus tayyorgarlik kordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirilishi darajasini aniqlash imkonini va harakatlarni bajarishning tezkor nazorat tavsiflarini amalga oshirishni belgilab beradi. Ko‘plab olimlar 13-14 yoshlarda kordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratish lozimligini ta‘kidlashadi. Bu davrda shug‘ullanuvchilarda harakat analizatorlari rivojlanishi pasayib harakat kordinatsiyasi rivojlanishi uchun zamin yaratiladi [18].

A.A.Guryayev fikriga ko‘ra sportchilarning raqobatbardosh faoliyati samaradorligi asosan, vestibulyar apparatni rivojlantirish orqali amalga oshiriladigan yetakchi vosita ya‘ni kordinatsion qobiliyatlar rivojlanish darajasi bilan bog‘liq. "Portlash" kuchi, harakat tezligi, sakrash qobiliyati, tezlik, sakrash va o‘yinga chidamlilik, tezkorlik, bu ham muvofiqlashtirish qobiliyati va vestibulyar barqarorlik bilan o‘zaro bog‘liqdir. Bu esa jismoniy tarbiya vosita ko‘nikmalarini - umumiy ishchanlikni to‘plashga yordam beradi [5, 19].

Sport mashg‘ulotlarida kordinatsion qobiliyatlarni ahamiyatini to‘g‘ri anglagan holda sport turining xususiyatlariga qarab mashq qildirish katta samara beradi. Jumladan, sport turida kordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish orqali texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirish masalasiga alohida yondoshuv zaruriyati namoyon bo‘lmoqda.

Futbol tajribasida mavjud ilmiy-metodik va maxsus adabiyotlarning taxlili yosh futbolchilarning kordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirish yo‘llarining tadqiq qilinishini taqozo etuvchi muammo mavjudligini aniqlab beradi.

Futbol bo‘yicha maxsus adabiyotlarni o‘rganish futbolchi yoshlarning organizm xususiyatlarini inobatga olgan holda kordinatsion qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan, jumladan umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi darajasini baholash bo‘yicha mavjud me‘yorlar deyarli mavjud emasligini ko‘rsatdi.

Yoshlar futbolining maxsuslashtirilgan tayyorgarligini yaxshilashning amaliy ahamiyat darajasining oshib borayotganligi muammosi hozirda futbolchi yoshlarning texnik mahorati takomillashuvini nazorat qilish va baholash bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy asoslangan tavsiyalarning ahamiyatlilik darajasi yaqqol ko‘rsatib berdi. Ilmiy-metodik va maxsus adabiyotlarning o‘tkazilgan nazariy tahlili tadqiqot muammosini aniqlab olishga imkon beradi.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Ачилов.А.М. Акрамов Ж.А, Гончарова О. В. Болаларнинг жисмоний сифатларини тарбиялаш. Ўқув-қўлланма. Тошкент. 2009 йил, Б. 95.
2. Буравел О.И. Физиологические характеристики ударно целовых дейтвии у футболистов. Автореф. дисс. канд. мед. наук. - Томск., 2012. - 23 с.
3. Витковски З. Координационные способности юных футболистов: диагностика, структура, онтогенез: дис. ... канд. пед. наук. М., 2003. 232 с.
4. Гонгарова О.В Ёш спортчиларни жисмоний қобилятларини ривожлантириш ўқув қўлланмаси. Тошкент 2006 йил Б.115. 34
5. Гуряев А.А. Методики специальной физическая подготовка для повышение координационных способностей и вестибулярно устойчивость волейболистов с учётом их морфофункциональных способностей. Автореф. дисс. д-ра пед. наук. – Малаховка., 2010. – С. 3.
6. Иванов Е. В. Развития координационная способностей юных футболистов. Сборник сатби по материалы XXXIV – XXXV Международный научно-практический конференция 2011 год С.47.
7. Исеев Ш.Т. Футболчиларни йиллик циклда тайёрлашни режалаштириш - Т., Илмий техник ахборот пресс нашриёти 2014.- Б. 239.
8. Йўлдашов М.Р. Ёш футболчи қизларнинг координацион қобилятларини ривожлантириш услубиятини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация. 2021 й. -146 б.
9. Кузнецов А.А. Футбол - настольная книга детского тренера.-М: Олимпик-человек. 2008. - 72 с.
10. Курбонов О.А, Нуримов З.Р, Усмонов А.М, Скоростно силовая подготовка футболистов. Ташкент. Монография Лидер пресс 2009 г, 84 с
11. Лях В., Витковски З. Координационная тренировка в футболе. М.: Сов.спорт, 2010. 216 с.
12. Лях В.И. Критерии определения координационных способностей //Теория и практика физической культуры. - М., 1991. - №11. - С. 17-20.
13. Лях В.И. Совершенствование специфических координационных способностей //Физическая культура в школе. -2001. -№ 2. С.7-14.
14. Никитушкин В.Г., Губа В.М. Методы отбора в игровых виды спорта. - М., 1998. -78 с.
15. Нуримов Р.И, “ Футбол назарияси ва услубияти” Дарслик. 2015 йил, Илмий техника ахборот пресс нашриёти, Б. 217.
16. Нуримов.Р.И, Акрамов Р.А, Исеев Ш.Т, Давлетмуратов С.Р, “Футбол назарияси ва услубияти”. Дарслик. 2018 йил, Илмий техника ахборот пресс нашриёти, Б. 159.
17. Озолин. Настольная кига науки побеждать. Астрель 2002. йил 232 с
18. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в омимпийском спорте. Киев. 2004. - 807 с.
19. Полевой Г.Г Развития специфических координвционных способностей футболистов 11-12 лет с учётом осбенности проявления свойств нервной система дисс. кан. пед.наук 2015.
20. Сафарова Д.Д. Спорт физиологияси. Ўқув қўлланма. 2011- йил Б. 109.
21. Туревский И.М. Структура психофизической подготовленности учащейся молодежи. Министерство Образования Российской Федерации. Тула, 1993.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 12-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-12

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-12

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz